

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING IJODIDA LOQAYDLIK VA BEFARQLIKKA OID QARASHLAR

VIEWS ON INDIFFERENCE AND INDIFFERENCE IN THE WORKS OF EASTERN THINKERS

ВЗГЛЯДЫ НА РАВНОДУШИЕ И РАВНОДУШИЕ В ТВОРЧЕСТВЕ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ

Davronova Umida Akram qizi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Samarqand filiali Telekomunikatsiya texnologiyalari

va kasb ta'lim fakulteti RI 23-10 guruh talabasi

Email: umidadavronova05@icloud.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada befarqlik va loqaylikka qarshi kurashish omillarini, befarqlik va loqaydlikni insonlar hayotiga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Loqaydlik , befarqlik , illat , giyohvandlik , zararli oqimlar , diniy ekstremistik guruhlar , ogohlik , jamiyat va davlat.

Beparvolik (befarqlik, e'tiborsizlik, loqaydlik) – kishidagi o'zgalar hayotiga, atrof-voqelikka e'tiborsizlik, loqaydlikni anglatuvchi tushuncha. Ayniqsa, davlat va jamiyat hayotida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'layotgan, Vatan taqdiri hal bo'layotgan pallalarda kishilardan yuksak faollik, mas'uliyat talab qilingan sharoitdagi befarqlik nafaqat illat, balki jinoyat hamdir. Bugungi kunda ham O'zbekiston kelajagini g'ayrat-shijoatlari, irodasi baquvvat, iymon-e'tiqodi but, Vatan taqdiriga befarq bo'lmagan insonlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Birovning hayotiga, yon-atrofdagi sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga betaraf va beparvo qarab, shunchaki kuzatuvchi bo'lib yashaydigan odamdan qo'rqish kerak. Ulardan hech qachon yaxshilik chiqmaydi. Chunki ularda na iymon, na iroda bo'ladi. Ular hatto o'z xalqi va Vatani taqdiriga ham bamisoli begona odamdek qaraydi.

Azaldan ma'lumki, beparvo odam dushmanidan ham xavfliroqdir. Chunki dushmanning kimligi, asl qiyofasi siz uchun oldindan ma'lum bo'ladi. Biroq loqayd va beparvo odamning qiyofasini birdaniga bilib bo'lmaydi. Shuning uchun u ichingizda yurib, sizga qarshi tish qayraydigan dushmanlar uchun imkoniyat yaratib

beradi. Mashhur faylasuflardan biri ana shu hayotiy haqiqatni chuqur tahlil etib, quyidagi haqqoniy fikrlarni bayon qilgan: “Dushmanlardan qo‘rqma – nari borsa, ular seni o‘ldirishi mumkin. Do‘stlardan qo‘rqma – nari borsa, ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo‘rq – ular seni o‘ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli Yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo‘laveradi”. Demak, beparvolik – irodasi zaif, qat’iyatsiz odamlarga xos bo‘lib, insonni ma’naviyatdan, umuman insonlik martabasidan mahrum etadigan illatdir.

Loqaydlik bu – burch va mas’uliyatni his qilmaslik, atrofdagilarning, o‘zining taqdiri va kelajagiga dahldor voqeliklarga e’tiborsizlikdir. Barcha davrlarda ziyolilar bunday illatga qarshi kurashganlar, xalqni ogohlantirib kelganlar.

Hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosatning maqsadi kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o‘tish kontsepsiyasidir. Bunda fuqarolardan davlat va jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida faol ishtirok etishlari talab etiladi. Buning uchun xalqni bir maqsad yo‘lida, ezguliklar sari safarbar etish, insonlardagi loqaydlik va beparvolikka barham berish lozim bo‘ladi. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng, bunday illatga qarshi kurash alohida ahamiyat kasb eta boshladi. Prezidentimiz ham doimo fuqarolarimizni ogohlikka va e’tiborli bo‘lishga chaqiradi. Bu shuning uchun kerakki, loqaydlikning ma’no mazmuni na muqaddas dinimiz mohiyatiga, na boshqa taraqqiyot qonunlariga to‘g‘ri keladi. Uni yana dangasalik, tanballik, boqimandalik, boqibeg‘amlilik va beparvolik kabi salbiy illatlar bilan bog‘lash mumkin. Bular jamiyatni tubanlashtiradigan omillardandir.

Hozirgi davrning talabi – aniqlik va yangiliklardan tezkorlik bilan xabardor bo‘lish. Loqaydlik esa bunga tamomila ziddir. Prezidentimiz “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida shunday deydi: “Birovning hayotiga, yon-atrofdagi sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga betaraf va beparvo qarab, shunchaki kuzatuvchi bo‘lib yashaydigan odamlardan qo‘rqish kerak. Ulardan hech yaxshilik chiqmaydi. Chunki ularda na imon va na iroda bo‘ladi. Ular xatto o‘z xalqi, vatani taqdiriga ham bamisoli begona odamdek qaraydi”.

Shuningdek, yurtboshimiz mashhur faylasufning quyidagi fikrlarini keltiradi: “Dushmanlarningdan qo‘rqma, nari borsa ular seni o‘ldirishi mumkin, do‘stlaringdan qo‘rqma, nari borsa ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo‘rq, ular seni o‘ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo‘laveradi”. Naqadar buyuk fikrlar. Befarq odamlarning kasriga qolgan qancha odamlar bor, necha-necha yovuzliklar sodir bo‘ladi. Ular borligining o‘zi bilan jamiyatlarga zarar yetkazaveradi.



Biz ham bu illatlarning jamiyat uchun qanchalik zararli ekanini inobatga olib mashhur shaxslarning quyidagi fikrlarini keltirishni muhim deb bildik: Shayx Sa'diy aytadi: "Magar sen o'zgalarning qayg'usig'a loqaydlik ila qarasang, sen inson degan nomg'a noloyiqsen". Sohibqiron Amir Temur esa o'zining tuzuklarida: "Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy tadbirkor va xushyor bir kishi minglab tadbirsiz loqayd kishilardan yaxshidir", - deb ta'kidlaydi. Nemis yozuvchisi Georg Lixtenberg aytadi: "Qaerdaki loqaydlik – u yerda xato, qaerdaki sovuqqonlik – u yerda jinoyat". Yusuf Xos Hojibning quyidagi misralari ham kishini xushyor bo'lishga chorlaydi: "Har bir ishda ham g'ofillik qilma, hushyor bo'l, g'ofillarning ishlari hech qachon ko'ngildagidek bo'lmaydi". Bahouddin Naqshband esa adashayotgan kishilarga to'g'ri yo'lni ko'rsatishga chorlaydi: Ko'r ketar ekan bilmay istiqbolda choh, Uni ogoh etmasang sendadir ulug' gunoh.

Hozirgi kunda xalqimiz orasida ham loqaydlik va beparvolik illatlari uchraydi. Ammo hech kim o'z shaxsiy manfaatlari uchun loqayd emas. Xulosa shuki, yangi davrda yangi jamiyat qurayotgan ekanmiz, noto'g'ri aqida va g'oyalardan, zararli illatlardan voz kechishimiz biz uchun suv va havodek zarur. Abdulla Avloniy aytganidek, "Ma'rifat sohibi bo'lmak uchun ahvoli olamdan xabardor bo'lmak kerak". G'ofil odam ko'z yumib g'aflat uyqusiga botadi, ey irodali mard, g'ofil bo'lma, hushyor bo'l. (YUSUF XOS HOJIB)

Loqaydlik degan bir bedavo illat borki, u keltirayotgan ziyon tufayli ko'plab ko'ngillarga ozor yetadi. Ko'plab hayotlar barbod bo'ladi. Ayni kunda g'iyohvandlik, OITS, ichkilikbozlik kabi odamzodning kushandasi bo'lgan illatlar nimadan kelib chiqmoqda? Shubhasiz, buning sabab va omillari ko'p, inchunin, oila, atrof-muhit kabi. Ammo bularning bosh sababi eng avvalo ota-onaning farzand tarbiyasi, uning yurish-turishiga e'tiborsizligi yoki beparvoligi tufaylidir, desak to'g'ri bo'ladi.

To'qlikka sho'xlik, oilada nazoratning yo'qligidan ayrim yoshlar yuqoridagi singari illatlarga chalilib, oxir-oqibatda ba'zi oilalar parokanda bo'lib ketmoqda. Alloh ko'rsatmasin, mana shunday loqaydlik oqibatida ayrim yoshlar esa nafaqat jamiyat va davlat uchun, balki insoniyat uchun zararli, yot oqimlar, diniy ekstremistik guruhlariga qo'shilib qolayotgan hollar ham uchrayapti. Biz esa, bularni ko'rib ko'rmaganga, bilib bilmaganga oldik. Zero, bunday loqaydlik va beparvolikning to'lovi shunchalar qimmatki, uni faqat inson umri, or-nomusi, hayoti bilangina o'lchash mumkin bo'ladi.

Afsuski, bolalari kelajagi bilan qiziqmagan, ularning taqdiriga yillar davomida loqayd bo'lib kelgan ota-onalar g'isht qolipdan ko'chgandan keyin ming marta



attang, deb boshni changallab o'tirishadi. Ammo, qani endi, bundan biror-bir naf bo'lsa. Holbuki, xoh o'g'il bo'lsin, xoh qiz bo'lsin, oila kattalari avval boshdanoq ularning har bir qadam qo'yishini kuzatib, kerak joyda tanbeh berib, bu yo'ldan qaytarishi zarur edi. Agar ota-ona ogoh bo'lib ko'zining oqu qorasini maktab, kollej yoki ko'chada kimlar bilan do'stlashayotganini, darsdan keyin nima mashg'ulot bilan bandligi-yu, qayoqqa borayotganini so'rab-surishtirib, tergap turganida, vaqtida nazorat qilganida, shubhasiz, bunday noxushliklarning oldi olingan bo'lardi.

Shuni ham bilib qo'yishimiz lozimki, loqaydlik hukm surgan oilada farzandlarning bebosh, bemehr bo'lib o'sishi, oxir-oqibatda ota-onani kuydirishi ajablanarli hol emas. Shuningdek, loqayd kimsa rahbarlik qiladigan idorada ishlarning orqaga ketishi, tibbiyot maskanida esa bemorlarning hayoti xavf ostida qolishi turgan gap. Bundan kelib chiqadiki, loqaydlikning miqyosi va darajasining ham, u keltirayotgan zararning o'lchov-me'yorini ham o'lchashning imkoni yo'q.

Kechagina yurt, ota-ona bag'rida yurgan, ko'ngli orzu-havaslariga to'la qanchadan-qancha navqiron yigitlar o'z taqdirlariga loqaydliklari bois chet elda pul topaman deb, qullik iskanjasiga tushib o'tiribdi. Farzandlarini mo'may pul topish ilinjida yot yurtga jo'natib yuborib, keyin esa ulardan pul olish tugul, hatto bir dom-darak va mujda eshitishga mushtoq bo'lib, qon yig'lab o'tirgan otaonalarni ham ko'rayapmiz. Holbuki, bu ota-onalar bolalari taqdiriga befarq bo'lmasdan, vaqtida bu yo'ldan qaytarib, to'g'ri maslahat berganlarida shunday holatga tushmas edi. Boriga qanoat qilmasdan erini chet elga kuzatib qo'yib, keyin afsus chekib o'tirgan xotin-qizlarning holatlarini ham ko'ryapmiz. Faqat bir haqiqat shuki, loqaydlikning katta-kichigi, muhim yoki nomuhimi bo'lmaydi.

Darhaqiqat, bugungi davr jamiyatimizning har a'zosidan, har bir yoshidan faollik va hushyorlikni talab qilmoqda. Ayniqsa, yuqorida aytganimizdek, bunda ota-ona va maktab, kollej-litsey o'qituvchilarining roli muhimdir.

Allohga behisob shukrlar bo'lsinki, Vatanimiz yildan-yilga ravnaq topmoqda, qayoq qilinishi, mamlakatdagi tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda hushyorlikni anglatadigan tushuncha. Jamiyatda mavjud ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning ta'minlanishi va asralishi bevosita inson ongi, tafakkuri bilan chambarchas bog'liq. Har bir shaxs xalq, jamiyat, o'z jamoasi, oilasi oldidagi burch va mas'uliyati hamda moddiy-ma'naviy ne'matlarga egalik huquqi mavjudligini anglab, idrok etishi unda ogohlik tuyg'usini shakllantiradi. Ogohlik jamiyat har bir a'zosidan uning tinch va osoyishta hayotdan har tomonlama manfaatdorlik tuyg'usi shakllanishida namoyon bo'ladi. Ushbu manfaatdorlikni anglagan inson jamiyatda sodir bo'layotgan voqea va hodisalarga befarq qarab tura olmaydi, loqaydlik qanday oqibatlarga olib

kelishini tushunadi. Ogohlik loqaydlikning aksidir. Mazkur tushunchalar mazmun-mohiyatiga ko'ra, muhim ahamiyat kasb etadi. Ogohlik tinchlik va osoyishtalik, barqarorlikni ta'minlashning sharti sifatida namoyon bo'lsa, loqaydlik esa jamiyat tanazzuliga zamin yaratadi. Keng qamrovli siyosiy-ijtimoiy islohotlarni boshdan kechirayotgan, siyosiy barqarorlikni ta'minlash yo'lida faoliyat yuritayotgan mamlakatlarda ogohlikka amal qilish g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki loqaydlik tufayli boy berilgan ogohlik davlat, jamiyat va millat uchun qimmatga tushishi mumkin. Ogohlik tuyg'usi milliy o'zlikni chuqur anglash va uni e'zozlashga intilishdir. Ma'lumki, har bir xalq, millat o'ziga xos ruhiy va ma'naviy fe'l-atvorga ega. Shuning uchun ham turli mintaqalarda yashayotgan xalqlarning yashash tarzi, qadriyat va urf-odatlar o'zaro farqlangan. Jumladan, o'zbeklar, umuman, Sharq xalqlarida ogohlik ham or-nomus, sharm-hayo tushunchalari kabi hayotning barcha jabhalarida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Jamiyatdagi mavjud qonunlarga bo'ysunib yashashni turmush tarziga aylantirgan, o'z xatti-harakatini ma'lum qonun-qoidalarga tayangan holda amalga oshiradigan, yuksak aql-idrok, odob-axloq hamda ogohlikni hayotning har bir daqiqasida namoyon qiladigan xalq ravnaq topadi, jamiyat ma'naviyati yuksaladi, fuqarolarning erkin va farovon hayoti ta'minlanadi. Shu ma'noda, hozirgi tahlikali dunyoda "Ogoh bo'ling, odamlar!" degan da'vatlar kishilarni tevarak atrofga ochiq ko'z bilan qarashga, hamisha ogoh va hushyor bo'lib yashashga chorlaydi. Bugungi kunda ogohlik bebaho qadriyatlarimiz, mustaqilligimiz, tinchligimiz, ijtimoiy barqarorlik, tadrijiy taraqqiyot, jamiyatda millatlar va fuqarolar xavfsizligi uchun xizmat qilmoqda.

Ogohlik – inson va millat manfaatlarining asrab-avaylanishi, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy qoidalarga rioya qilinishi, mamlakatdagi tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda hushyorlikni anglatadigan tushuncha. Jamiyatda mavjud ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning ta'minlanishi va asralishi bevosita inson ongi, tafakkuri bilan chambarchas bog'liq. Har bir shaxs xalq, jamiyat, o'z jamoasi, oilasi oldidagi burch va mas'uliyati hamda moddiy-ma'naviy ne'matlarga egalik huquqi mavjudligini anglab, idrok etishi unda ogohlik tuyg'usini shakllantiradi. Ogohlik jamiyat har bir a'zosidan uning tinch va osoyishta hayotdan har tomonlama manfaatdorlik tuyg'usi shakllanishida namoyon bo'ladi. Ushbu manfaatdorlikni anglagan inson jamiyatda sodir bo'layotgan voqea va hodisalarga befarq qarab tura olmaydi, loqaydlik qanday oqibatlarga olib kelishini tushunadi. Ogohlik loqaydlikning aksidir. Mazkur tushunchalar mazmun-mohiyatiga ko'ra, muhim ahamiyat kasb etadi. Ogohlik tinchlik va osoyishtalik, barqarorlikni ta'minlashning sharti sifatida namoyon bo'lsa, loqaydlik esa jamiyat tanazzuliga zamin yaratadi.



Keng qamrovli siyosiy-ijtimoiy islohotlarni boshdan kechirayotgan, siyosiy barqarorlikni ta'minlash yo'lida faoliyat yuritayotgan mamlakatlarda ogohlikka amal qilish g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki loqaydlik tufayli boy berilgan ogohlik davlat, jamiyat va millat uchun qimmatga tushishi mumkin. Ogohlik tuyg'usi milliy o'zlikni chuqur anglash va uni e'zozlashga intilishdir. Ma'lumki, har bir xalq, millat o'ziga xos ruhiy va ma'naviy fe'l-atvorga ega. Shuning uchun ham turli mintaqalarda yashayotgan xalqlarning yashash tarzi, qadriyat va urf-odatlarini o'zaro farqlangan. Jumladan, o'zbeklar, umuman, Sharq xalqlarida ogohlik ham or-nomus, sharm-hayo tushunchalari kabi hayotning barcha jabhalarida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Jamiyatdagi mavjud qonunlarga bo'ysunib yashashni turmush tarziga aylantirgan, o'z xatti-harakatini ma'lum qonun-qoidalarga tayangan holda amalga oshiradigan, yuksak aql-idrok, odob-axloq hamda ogohlikni hayotning har bir daqiqasida namoyon qiladigan xalq ravnaq topadi, jamiyat ma'naviyati yuksaladi, fuqarolarning erkin va farovon hayoti ta'minlanadi. Shu ma'noda, hozirgi tahlikali dunyoda "Ogoh bo'ling, odamlar!" degan da'vatlar kishilarni tevarak atrofga ochiq ko'z bilan qarashga, hamisha ogoh va hushyor bo'lib yashashga chorlaydi. Bugungi kunda ogohlik bebaho qadriyatlarimiz, mustaqilligimiz, tinchligimiz, ijtimoiy barqarorlik, tadbiriy taraqqiyot, jamiyatda millatlar va fuqarolar xavfsizligi uchun xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda bugungi kunda joylarda huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish sohasida olib borilayotgan izlanishlar, harakatlar o'z samarasini bermokda. Bunda ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha yangicha ishlash tizimi joriy etilayotgani poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Maqsad - tom ma'noda fuqarolarning chinakam himoyachisi bo'lishdir. Bugun hamma sohada bo'lgani kabi ichki ishlar organlarifaoliyatini ochiq, oshkora xalqqa yetkazish bo'yicha bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Birgina mart oyini oladigan bo'lsak, shahar hududida 606 nafar ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirilgan. Shulardan 532 nafariga jarima, 10 nafariga ma'muriy qamoq jazosi tayinlangan, 49 nafari esa ogohlantirildi. Ishga bo'lgan mas'uliyat va temir intizom tufayli mart oyi davomida shahar hududida 23 marotaba "Tig'" tadbiri o'tkazildi. Mazkur tadbir davomida 786 ta transport vositasi tekshiruvdan o'tkazildi. 2 nafar shaxslarga O'zbekiston Respublikasi MJtKning 1852-moddasi 1- va 2-qismi bilan hujjatlar rasmiylashtirilib, jinoyat ishlari bo'yicha shahar sudiga taqdim etildi. O'zbekiston Respublikasi MJtKning 161-moddasi (Shaharlarni va boshqa aholi punktlarini obodonlashtirish qoidalarini buzish) bilan 16 nafar, 223-moddasi (Pasport tizimi qoidalarini buzish) bilan 25 nafar, 54-moddasi (karantin qoidasini buzish) bilan 53 nafar, 187-moddasi (jamoat joyida spirtli ichimlik iste'mol qilish) bilan 32 nafar



fuqarolarga ma'muriy tartibda choralar ko'rildi. Joylarda targ'ibot va tashviqot ishlarini kuchaytirish, har bir oila bilan yakka tartibda ish olib borish masalasi bugungi kunda eng dolzarb masala bo'lib turibdi. Eng achinarlisi, shuki o'tgan oyda Shahrisabz shahar hududida yashovchi jami 224 nafar spirtli ichimlikka ruju qo'ygan shaxslar bilan profilaktik ishlar olib borilishiga qaramasdan mart oyi davomida Jinoyat ishlari bo'yicha Shahrisabz shahar sudi tomonidan spirtli ichimlik iste'mol qilishga mukkasidan ketgan 7 nafar fuqaro surunkali alkogolizmdan forig' bo'lishligi uchun majburiy viloyat narkalogiya dispanseriga yuborildi. Bugungi kunda yoshlarni har tomonlama mukammal qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiyasiga e'tibor qaratishda olib borayotgan ishlar yetarli bo'lmayapti. Bu sohada ota-onalar va mahalla hamda pedagoglar jamoasini uzviy hamkorligini yo'lga qo'yish zarur. Ta'lim muassasalarida "Davomat", "Voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida giyohvandlikka qarshi kurashish", "Siz qonunni bilasizmi?!" va boshqa tadbirlar olib borilib, sababsiz dars qoldirgan va ma'muriy huquqbuzarlik sodir qilgan 7 nafar o'quvchilarning ota-onalariga nisbatan O'zbekiston Respublikasi MJtKning 47-moddasi bilan ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirilib, chora ko'rishlik uchun Shahrisabz shahar hokimligi huzuridagi Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyasiga yuborildi. Ma'muriy huquqbuzarlik sodir qilgan va moyil bo'lgan 4 nafar voyaga yetmaganlar profilaktik hisobga olindi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, loqaydlik umr zavoli. Atrofimizda bo'layotgan voqea hodisalarni ko'ra bila turib, loqayd va beparvo bo'lishlik jinoyat sodir qilishlik bilan barobardir. Sohibqiron bobomiz Amir Temur tavallud topgan, kindik qoni to'kilgan zamindada jinoyat sodir etilmasligi uchun hammamiz birdek kurashmog'imiz va oldini olmog'imiz darkor. Havola etilayotgan raqamlarning har biri inson taqdiri bilan bog'liq. Bu kabi salbiy holatlarning oldini olish uchun katta hayotiy tajribaga ega nuroniyalar, yetuk yoshlar va malakali xotin-qizlar va jamoatchilik vakillarini jalb etib, jinoyatni jilovlashda o'rnak bo'laylik. Zero, insonlari ma'naviyat va ma'rifatga intilgan zaminda yo'lidan adashganlar bo'lmasin.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Oyina.uz "Ma'naviyat asosiy tushunchalar luğati" <https://oyina.uz/uz/teahause/1382>
2. Naqshband.uz <https://naqshband.uz/makolalar/loqaydlik-oqibati>
- 3.Din ishlari bōyicha qōmita <https://religions.uz/uz/news/detail?id=137>
- 4.uzhurriyat.uz <https://uzhurriyat.uz/2016/03/09/loqaydlik-zambaragi-qarshisida/>
5. Islom Abdug'aniyevich Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobi

